

XUSHXABAR Yaqinda
Marg'ilon
shahridagi
«Orlob'yi» mahalla
fuqarolar yig'ini hududida
«Yoshlik» suv sporti maktabi
ochildi.

MARG'ILONDA SUV SPORTI MAKTABI OCHILDI

Shahar Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ushbu maskanning ochilishi Marg'ilon va uning atrofida joylashgan Qo'shtepa, Toshloq va Yozyovon tumanlaridagi suv sportiga qiziquvchi o'quvchi-yoshlar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi.
— Bu yerdagi sharoitlarni ko'rib, quvonasan kishi. Biz orzu qilgan imkoniyatlar ro'yobini bugunning baxtli bolalari

ko'rishmoqda, — deydi «Nuroni» jamg'armasi shahar bo'limi Kengashi raisi Turg'unboy aka Nishonov. — Endilikda yoshlardan faqat sport bilan muntazam shug'ullanish va o'z yutuqlari bilan Vatanimiz dovrug'ini dunyoga yoyishlarini kutib qolamiz.

Muhammadjon MAHMUDOV

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:23 (67032)
2015-yil
8-iyun

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

TANISHING:

«ONAJONIM TABIAT» insholar va rasmlar tanlovi g'oliblari



Yaqinda O'zbekiston ekologik harakati, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida yurtimiz umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanloviga yakun yasaliib, g'oliblar homiy tashkilotlar tomonidan taqdirlanishdi.

(Davomi 2-betda)

SENI ASRAYMIZ, TABIAT!



— Nigina Turg'unovaga kavasim keladi, — deydi Sarvaroy quvonch bilan.

Ushbu sonda:

YETMISH YOSHLI SOBIQ SINFDOSHLAR

bugungi kun o'quvchisiga kavas bilan qarashdi

2-bet

YOZNING ENG QUVNOQ BAYRAMI

3-bet

G'OLIBLAR LONDONGA BORADI

5-bet



Jelhomjon TOJJIYEV

Otabek BAKIROV

Anvarjon ABDULLAYEV

2015-yil - Keksalarni e'zozlash yili

YETMISH YOSHLI SOBIQ SINFDOSHLAR

Bugungi kun o'quvchisiga havas bilan qarashdi

Sinfxonalar... Partalarni to'ldirib o'tirgan palaponlar bugun har manzilga uchirma qushday parvoz qilishadi. Bolalikning beg'ubor damlari kechgan qadrdon maskanni tark etish naqadar qiyin...

ellik yil muqaddam tamomlagan sobiq o'quvchilar diydorlashuvi bo'lib o'tdi. Uzoq yillik sinfdoshlar uchrashuvi bayram tantanalariga aylanib ketdi. Yetmishni qoralagan sinfdoshlar bolaligi kechgan qadrdon sinfxonada yoshlik damlarini xotirlashdi. O'sha kuni do'stlar qatorini bevaqt



Abduraim Esonboyevning bu safargi tarbiyaviy soatida o'zlarini yana bir bor darsdagidek his etishdi.

Do'stlarimning aksari malakali mutaxassislar bo'lib, Musurmon, Toshpo'lat, Ergash, Erali, To'lagan va Ma'rafat faxriy pedagoglardir. Nurali yetuk agronom, Qarshiboy esa ko'p yillar farmatsevtikada faoliyat yuritdi. Biz tez-tez ko'rishib turamiz. Yaxshi kunlarimiz ular ishtirokisiz o'tmaydi, - deydi To'liq Qurbonaliyev.

Zamonaviy jihozlangan xonalarda ilm olayotgan bugungi kun o'quvchisiga havas bilan qarashar ekan, faxriy o'quvchilar beg'ubor damlar zavqini qo'msab, ushbu kun bolalikning rangin dunyosiga sayohat qilishdi. Maktab davrida kechgan qiziqarli voqealar, ajoyib sarguzashtlarni miriqib eslashdi. Sinfdoshlarning sog'inchli diydorlashuvi uzoq yillar xotirada muhrlanib qolishi, shubhasiz.

Feruza UMAROV!



tark etgan sinfdoshlar yodga olindi. Yarim asrlik vaqt ne-ne ustozlarni bu dunyodan olib ketdi. Sobiq o'quvchilar sinf rahbari bo'lgan, fizika fani o'qituvchisi M i n a v v a r Hazratqulovani, kimyodan saboq bergan Qurol Aminov, geografiya muallimi Isoq Valiyev, chet tili o'qituvchisi Xolida Qutiyeva, ona tili va adabiyot fani muallimi Qosim Mirboboyev hamda rus tili ustozi Mariya Nikitinani iliq

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 6-umumta'lim maktabi keksa ta'lim maskanlaridan sanaladi. Bu kun shu dargohni

xotirlashdi. O'sha vaqtlar savlatidan barcha hayiqadigan maktab direktori Teshaboy Kalimbetovni alohida eslashdi. Qator partalarda tizilishgan nuroniy o'quvchilar ustozi

TANISHING: «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi g'oliblari

5 июнь - БУТУНЖАҲОН АТРОФ-МУҲИТ КУНИ

УЗБЕКИСТОН ЭКОЛОГИК ҲАРАКАТИ

СОҒЛОМ МУҲИТ ИНСОФИ

Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktab o'quvchisi Sarvaroy Ne'matullayeva tanlovning «Eng yosh musavvir» yo'nalishi g'olibi.

yo'lidagi tashabbuskorligi, barkamol avlodning ekologik tarbiyasini kuchaytirishga doir yurtimizda amalga oshirilayotgan xayrli ishlar xususida alohida to'xtaldi. Anjuman davomida tanlov g'oliblari bir-birlari bilan yaqindan tanishib, tanlov yuzasidan amalga oshirgan ishlari borasida o'zaro fikr almashdilar. O'z muxbirlarimiz



Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi Otabek Bakirovning navbatdagi intervyusi.

Mana 43 yildirki, dunyo mamlakatlarida 5-iyun – Butunjahon atrof-muhit kuni sifatida keng nishonlanadi. Ushbu bayram «yashil» konsertlar, ko'rik-tanlovlar, bog'lar yaratish hamda tabiatni asrashga oid ekologik aksiyalar o'tkazilishi bilan ham ahamiyatlidir.

O'zbekiston ekologik harakati tomonidan o'tkazilgan tadbirlar atrof-muhit sofligi aholi salomatligini mustahkamlashdagi o'rni, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi xizmatlari bilan ahamiyatlidir. Ekoharakatning navbatdagi tadbiri poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'idagi bo'lib o'tdi. Anjuman ishtirokchilari jannatmakon o'lkamiz tabiatini muhofaza qilish, mazkur tashkilot deputatlari guruhi ushbu yo'nalishdagi qonunchilikni takomillashtirish va yangilarini tayyorlash



G'alaba quvonchi yangi marralar sari chorlaydi.

BIR MAKTABDAN UCH QO'LTIB

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari allaqachon yozgi ta'tilni oromgohlarda miriqib dam olish bilan boshlab yuborishgan bo'lsalar, yuqori sinf o'quvchilari uchun esa ayni dam bitirish imtihonlarining avji qizg'in pallasi.

Erishgan muvaffaqiyatidan mamnun holda jilmayib turgan suratdagi tengdoshingiz Durdona Sharafiddinova poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 292-umumta'lim maktabi bitiruvchisi.

LOLAMAN

Lolaman, men olov lolaman, Ko'zingdan yog'ilgan lolaman. G'amingdan yaralgan, otajon, Sochingda oqargan lolaman.

Qirlarda yig'lagan qizg'aldoq, Osmonning oyiga chin o'rtoq. Kulgusi sho'x o'sha qizaloq, Yer isi, yer izi lolaman.

Osmonda sirlarga tok ilgan, Yurakda g'amlari so'kilgan. Qirlarga yaprog'i to'kilgan, Quyoshning singlisi lolaman.



Yaqinda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan tashkil etilgan «Yurt kelajagi» iqtidorli yoshlar tanlovida

mazkur maktabdan bir yo'la uch nafar o'quvchi turli yo'nalishlar bo'yicha qatnashib, 1-o'rinni egallashdi. Adabiyot sohasida nazm yo'nalishi bo'yicha Durdona Sharafiddinova, arxitektura va dizayn bo'yicha 8-sinf o'quvchisi Lutfulla G'afforov va tasviriy san'at sohasida 8-sinf o'quvchisi Umid Adilov g'olib deb topildi. Iqtidorli, bilimdon, izlanuvchan o'quvchilar erishgan muvaffaqiyatlari bilan ta'lim bergan ustozlarining ishonchlarini to'la oqlashdi. Farzandlarining yutuqlaridan ota-onalar ham behad mamnun.

Adabiyotning chin ixlosmandi bo'lgan Durdonaning o'zi ham she'rlar yozib turadi. E'tiboringizga uning ijod namunalaridan biri havola qilinmoqda.

BONU

GO'ZAL VATANIM, MENING BAXTIMSAN!

O'zbekistonimday go'zal yurt, go'zal diyoy yana qayda bor? Viqorli tog'lari, go'zal bog'lari, biri-biridan ko'rkam shahar-u qishloqlari o'ziga maftun etadi.

Diyorimiz go'zalligining boisi nimada? Bu, albatta, tinch, osoyishta Vatanda yashayotganimizda. Xalqimizning mehnatkashligi, inson e'zoz topayotganida. Halol mehnat orqali yutuqlarga erishib, turli sohalarida dunyoni zabt etayotganimizda. Men yurtimning to'rt faslini ham yaxshi ko'raman. Sumalag-u ko'k somsasini, lola-yu binafshalarini, o'ynoqlab oqayotgan suvlarini,

bepoyon paxtazor-u bug'doyzorlarini sevaman. Bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyoligidan iftixor tuyaman.

Shunday jannatmakon yurtimizni ko'z qorachig'idek asrash, qadriga yetish har birimizning burchimiz ekanligini aslo unutmaylik.

Nilufar JUMABOYEVA,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi
18-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Insonning eng yaqin sirdoshi bu Onadir. Chunki u tun-u kun, har doim atrofimizda parvonadir.

ONA MEHRI

O'zi yetmagan orzularga bolam yetsin, deb farzandining kamolini tilaydi. Uning farzandiga bo'lgan mehri, sadoqati, muhabbatini so'z bilan ta'riflash qiyin.

Vatanni Onaga qiyoslab, ona Vatan deb tilga olishlarida ham hikmat bor. Vatan Ona kabi muqaddas. Muqaddas zot va muqaddas makonni birdek asrab-avaylamloq har bir insonning zimmasidagi yuksak mas'uliyatdir.


Dilnoza DURDIMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi 22-umumta'lim maktabining
9-«V» sinf o'quvchisi

YOZNING ENG QUVNOQ BAYRAMI

Oppoq qog'oz... Rangli qalamlar... Akvarel bo'yoqlari... Tabiatning go'zalligini aks ettirish uchun bu vositalarni o'rnida ishlata bilish kifoya. Nihoyat, bo'yoqlar-u qalamlar ishga tushib, ajib tasvirlar jonlanadi. Gullar, daraxtlar, favvora, natyurmort, tog' yo'li...

Bularning bari har yili muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan respublika Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o'rta sinfdagi an'anaviy «Kamalak jilosi» rasmlar ko'rik-tanlovida aks etdi. «Har bir bolaga mehri, e'tibor» shiori ostida tashkillashtirilgan ko'rik-tanlovda respublikamizdagi Mehribonlik uylarining 1500 nafar tarbiyalanuvchilari ishtirok etib, viloyat bosqichlarida g'olib deb topilgan 100 dan ortiq akvarel rasmlar va 80 dan ortiq amaliy san'at asarlari tanlovning yakuniy bosqichiga taqdim etildi.

O'n kunlik maxsus dastur doirasida tashkillashtirilgan mazkur tadbirda Toshkent shahridagi barcha Mehribonlik uylarining iqtidorli tarbiyalanuvchilari o'rta sinfdan tezkor rasmlar ko'rik-tanlovi ham uyushtirilib, ijodiy



ishlar o'sha zahoti hay'at a'zolari tomonidan baholab borildi. Jizzax viloyatidan 29-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Behzod Inomovning «Yangi hovlimiz» rasmi 4-10 yoshli o'quvchilar o'rta sinfdagi tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha 1-o'ringa munosib topildi. 11-16 yoshlilar o'rta sinfdagi Surxondaryo viloyatidan 12-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Shahnoza Primqulovaga

«Natyurmort» rasmlari uchun, amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha 4-10 yoshli bolalar o'rta sinfdagi Toshkent shahri 23-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Anastasiya Kraynyukning «Nyushax»si, 11-16 yoshlilar bo'yicha 22-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Feruz Sharipovning ijod namunalarini yuksak baholandi.

G'oliblar homiy tashkilotlar tomonidan munosib taqdirlandi.

Ozoda TURSUNBOYEVA



TA'TIL rejalashtirib olindi

Sardor va Mohinur aka-singil. O'quv yili yakunlanib, ular orziqib kutgan ta'til kunlari ham boshlandi. Ikkovlon yozgi ta'tilda bajaradigan ishlarini rejalashtirib olishdi.

Sardor sahadan mollarni yaylovda o'tlatib, tushdan so'ng bobosi Muxtorali amakiga tomorqa ekinlarini parvarishlashda ko'maklashadi. Ko'chatlarni yovvoyi o'tlardan tozalash, egatlar bo'yilab suvning bir



maromda oqishini nazorat qilish, eh-he, bularning barchasini bobosidan o'rganib olgan. Mohinur esa buvisining suyanchig'i. Muhabbat kelin ayasining «o'ng qo'l»i. Kunduzi oilaning barcha a'zolari ishga ketishganda, kichik Abdulbositning «bog'cha opa»si.

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 10-umumta'lim maktabining o'quvchilari Sardor Rasulov 4-sinfni tamomladi, Mohinur esa 2-sinfga o'tdi. Aka sinfdagi matematika bo'yicha eng bilimdon o'quvchi. Buvi nafaqadagi o'qituvchi emasmi, nabirasining olgan bilimlarini takrorlab turishida ko'makchi. Sardor bo'sh vaqtlarida rasm chizishni ham kanda qilmayapti. Mohinur har oqshom oila davrasida yod olgan she'rlarini xuddi suxandonlardek o'qib berishni yaxshi ko'radi. Go'dakligidanoq bobo va buvisi so'zlab bergan rivoyatlarni tinglab o'syapti. Bu xonadonda suhbatlar, asosan, kitobxonlik borasida kechadi.

Aka va singilning har kuni shunday o'tadi. Hali oldinda uch oy bor. Aziz bolajonlar, yozgi ta'tilning maroqli va esda qolarli kechishida siz nimalar qilmoqchisiz?

Nozima QUDRAT qizi

«GILAMDO'ZLIK» to'garak a'zolarining to'qigan gilamlar ko'rgazmasi tashkil etiladi.



Gilam to'qish san'ati xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi hisoblanib, u ko'p asrlik milliy an'anaga ega. Uning tarixiy ahamiyati dunyo xalqlari muzeylarida saqlanuvchi gilamdo'zlik yodgorliklari, kolleksiyalar, badiiy fondlar, shuningdek, tarixiy qo'lyozmalarda o'z tasdig'ini topgan. Barcha xalqlarda gilamdo'zlik san'ati qadim zamonlardan beri rivoj topganligi arxeologik topilmalarda ham o'z aksini topadi. Yurtimizda qadimdan rivojlangan gilamdo'zlik maktabi o'ziga xos yorqin va takrorlanmas ranglari, ko'rkam naqshlari, to'qish uslubi bilan ajralib turadi.

Navoiy viloyati, Konimex tumani «Barkamol avlod» bolalar markazida, mana 17 yildirki, «Gilamdo'zlik» to'garagi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ustoz Gulzira Tangatarova tuman maktablaridan jalb qilingan ushbu san'at shaydolariga gilam to'qish sirlarini o'rgatib kelmoqda. To'garak a'zolaridan Durdona Yusupova, Elmira

Turganbayeva, Nazerke va Aqerke Aldabergenova tuman va viloyat miqyosida o'tkazilayotgan barcha ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib kelishmoqda. Jumladan, «Istiqlol g'unchalari – 2014» viloyat festivalida Elmira Turganbayeva g'oliblikni qo'lga kiritib, «Eng mohir kigiz ustasi» nominatsiyasiga loyiq, deb topildi. Bundan tashqari, «Yuksak ma'naviyatli avlod» ijodiyot festivalining viloyat bosqichida Nazerke Aldabergenova «Eng mohir hunarmand» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Faoliyati davomida bir necha marta viloyatda «Yilning eng yaxshi to'garak rahbari», deb e'tirof etilgan Gulzira opa Tangatarovanning «Gilamdo'zlik» to'garaklari uchun qo'llanmalari va mashg'ulot ishlanmalari viloyatda ommalashtirildi. Malakali muallima yozgi ta'til davrida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish maqsadida to'garak faoliyatini kengaytirish, ko'proq o'quvchilarni jalb etish rejasini bugundanoq tuzib qo'ygan. Ha, aytmoqchi, hozirda to'garak qizlari to'qigan gilamlar ko'rgazmasini tashkillashtirish harakatida.

FERUZA

Bolalikdan xalq hunarmandchiligi bilan mashg'ul bo'lgan Sarvinozning keyinchalik bug'doy va arpa poyalari hamda somondan miniatyura asarlari yaratishga bo'lgan qiziqishi ortib bordi.

IBRAT

Bu hunar sirlarini ustoz Anvar Nazarovdan qunt bilan o'rgandi. Onasi va ukasi Akbarshoh bu borada unga yaqindan ko'maklashdi. Zarbdor tuman iqtisodiyot kasb-hunar kollejiga o'qishga kimgach, Sarvinoz Musurmonova kollej qoshida hunarmandchilik maktabi ochish tashabbusi bilan chiqdi va ko'p o'tmay bu yerda milliy asori-atiqalar, miniatyura asarlari yaratish yo'lga qo'yildi.

Bug'doy va arpa poyalari yaratilgan Buyuk Ipak yo'li, viloyat markazidagi «Xotira maydoni», kolleji binosining umumiy ko'rinishi hunarmand qizning ilk ishidir. So'nggi ikki yil ichida Sarvinoz Musurmonova rahbarligida oltmishga yaqin miniatyura asarlari yaratishga muvaffaq bo'lindi. Shu kasbga ishtiyoqmand o'quvchilar soni ham ortib bormoqda. Hozirda kasb-hunar kolleji o'quvchilaridan Shahlo Habibullayeva, Sarvinoz Ergasheva va Mahliyo G'aniyeva birgalikda o'lkashunoslik muzeyi, ko'cha va xiyobonlar ko'rinishini aks ettirishga harakat qilishmoqda.

Tuman hunarmandlar uyushmasi a'zosi «Tashabbus – 2015» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi g'olibi bo'lgan Sarvinoz respublika ko'rik-tanlovida qatnashish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati



Aytishlaricha, Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay topilgan. Bu esa insonning ruhiy kamolotida musiqa san'ati qadimdan muhim ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, musiqa insonlarni tarbiyalaydi. Musiqaga bo'lgan muhabbat esa bolalikdan shakllanadi.

NAYNING NAFIS OLASI



Asadbek 4-sinfda o'qib yurgan kezar edi. Unda nimgadir skripkadan taralgan musiqiy sadolarga o'zgacha bir qiziqish paydo bo'ldi. Nazarida bu cholg'u asbobini qo'lga olsa, o'zi ham chiroyli kuylarni chala oladiganday edi. Uning bu qiziqishini uydagilar ham tezda ilg'ashdi. San'atkor bo'lgan Jamshid akasi uni Chust shahridagi musiqa maktabiga olib bordi. U yerda tajribali, talabchan ustoz Homidjon Xanjarov nazariga tushdi. Homidjon aka bo'sh sinflardan biriga uni yetaklab kirib, qo'lga nayni olib shunday bir kuy chaldi-ki, butun maktab, tevarak-atrof allaqanday ajib sokinlikka cho'mganday edi, go'yo.

Ajdodlarimizdan meros bo'lgan mukammal cholg'u asboblardan biri o'zining nafis va betakror navosi bilan yosh qalbni sehrlab olganday bo'ldi. Asadbek musiqa maktabida skripka emas, nay yo'nalishi bo'yicha saboq olishga kirishdi. O'ziga bo'lgan ishonch, talabchanlik yosh musiqachini tez orada poytaxtimizdagi Glier nomidagi musiqa akademik litseyi tomon yetakladi.

Ayni chog'da mazkur maskanning 6-«B» sinfini tamomlagan Asadbek Taslimov mumtoz va zamonaviy kuylarning yigirmadan ziyodini maromiga yetkazib ijro etishni o'rganib oldi. Biror kuyini ijro etib berishni so'ralgan chog'da avval tabassum bilan qo'lini ko'ksiga qo'yib, so'ng esa butun vujudi bilan ijroga kirishib ketadigan yigitcha asta-sekin san'atning sermashaqqat va ayni chog'da sharaffi zinapoyalari yuqorilab bormoqda. U Abdulahad Abdurashidov va Doniyor Zokirov kabi el ardog'idagi san'atkor bo'lish orzusida. Uning ijrosidagi «Otmagay tong» kuyini tinglar ekanmiz, ko'nglimizda ajib hislar uyg'ondi. Milliy musiqamiz betakror ohangini his qiladigan, uni ijro etishdan zavqlanadigan yoshlarimiz safi kengayayotgani yanada zavqli.

Yusuf ABDULLAYEV



HULKARJAMOL

Alpomishlar yurti bu diyor,
Doston bo'lgan Rustamlari bor.
Shu o'lkada oftob ayvoni,
Shu o'lkadan boshlanar bahor...

Sahna uzra bu qo'shiq taralganida zaldagi o'quvchi-yoshlar unga jo'r bo'la boshladi. Yosh qo'shiqchi qizchanning sahna libosi-yu kuyga mos nozik harakatlari, sahnada o'zini erkin tutib, qo'shiqni yurakdan ijro etishi tinglovchilarni sehrlab qo'ydi. Qo'shiq tugashi bilan zalni olqish-u qarsak sadolari tutib ketdi.

Surxondaryo viloyatining Sherobod shahridagi 66-umumta'lim maktabi o'quvchisi Hulkarjamol Boboxonova bolaligidan musiqaga mehr qo'ydi.

Farzandida san'atga bo'lgan qiziqish, iste'dodni ilg'agan ota-ona uni 6 yoshida Sherobod musiqa maktabining fortepiano bo'limiga yetaklab bordi. U yerda musiqa o'qituvchisi Xolmamat Mamarasulovdan tahsil oldi. Maktabda o'tkaziladigan bayram tadbirlarida qo'shiq ijro eta boshladi. Bo'sh vaqtlarida dutor chertishni ham o'rganib oldi.

Musiqa maktabidagi nazariy va amaliy saboqlar Hulkarjamolning san'atga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada oshirdi. U qator tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok eta boshladi. O'tgan yillarda «Yagonasan, muqaddas Vatan!» respublika ko'rik-tanlovida I, II darajali diplom bilan taqdirlandi. 2014-yili Termiz shahrida o'tkazilgan «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivalida I darajali diplom bilan taqdirlandi. 2014-yilda esa mazkur tanlovning Toshkent shahrida o'tkazilgan saralash bosqichida yosh qo'shiqchi qiz «Yagonasan, Vatan!» va «Diyor» deb nomlangan qo'shiqlarni ijro etib, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Yosh iste'dod egasining kelajakda mohir san'atkor bo'lib yetishishiga ishonamiz.

Zebuniso BO'RIYEVA,

Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani XTMMFT va TE bo'limi uslubchisi

G'OLIBLAR LONDONGA BORADI



Bugungi kunda yurtimiz umumta'lim maktablarida chet tilini o'rganish tizimini takomillashtirish masalasiga doir keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda.

Buning amaldagi ijrosi misolida joriy o'quv yilida bir qator yetakchi

mahalliy va xalqaro ekspertlar hamkorligida tayyorlangan 3-sinflar uchun «Kids' English 3» darsligi fevral-aprel oylarida respublikamizdagi 120 ta

umumta'lim maktablarida tajribadan o'tkazilganini ta'kidlash mumkin.

Endilikda ushbu darslik 600 ming nusxada chop etilib, yangi o'quv yili boshlangunga qadar barcha ta'lim muassasalariga yetkaziladi. Shuningdek, ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida salkam to'rt oydan beri soha o'qituvchilari kasb mahoratini oshirib boruvchi kurslar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Yilning eng yaxshi ingliz tili o'qituvchisi» respublika ko'rik-tanlovi va «Ingliz tili bilimdonlari» intellektual musobaqasi fidoyi, jonkuyar va tashabbuskor pedagoglarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda o'quvchi-yoshlar o'rtasida chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni

rag'batlantirish yo'lidagi navbatdagi qadam bo'ldi.

Tanlovda ishtirok etgan ilg'or chet tili o'qituvchilarining natijalari Buyuk Britaniyadagi APTIS test sinovlari markaziga yuborildi. Yuqori ball to'plagan 40 nafar o'qituvchi mazkur davlatdagi nufuzli markazlarda malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uch shartdan iborat intellektual musobaqada o'quvchilarning o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirib berishlari hamda ular tomonidan tayyorlangan ingliz tilidagi sahna ko'rinishi baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, Toshkent shahri jamoasiga 1-, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi vakillariga 2-, 3-o'rin Navoiy viloyati jamoasiga nasib etdi.

Dinora HAMIDULLA qizi

Lesson 39

RIGHT PRONUNCIATION (To'g'ri talaffuz)

Find the words in B that have the same pronunciation as the words in A.

A	B
Write	four
there	I
hear	sun
wear	Our
eye	sea
see	here
for	Where
hour	buy
son	no
Right	two
know	their

Correct the two spelling mistakes in each sentences, use the words which stayed in A and B columns.

- I can here you, but I can't sea you.
- There are three bedrooms in hour house.
- I don't no wear Ilkhom lives.
- My sun lives near the sea.
- Don't where that hat, by a new one.
- Know, eye can't come to your party.
- You were write. Sally and Peter can't come four dinner.
- There daughter could right when she was three.
- I no my answers are write.

D. SHAKIROVA tayyorladi

TONGUE TWISTERS (Tez aytishlar)

Mr. Tongue Twister tried to train his tongue to twist and turn, and twit and twat, to learn the letter «T».

Which watch wished which wicked wish?

Umida UMAROVA

LET'S FIND TOGETHER (Keling, birga topamiz)

Resolve the following rebus. Find the names of these things in English and put together the head letters to make a new word.



Risolat ISMOILOVA

CROSSWORD

Write the sport kinds in these box.

1				S
2			P	
3			O	
4			R	
5			T	
6			K	
7			I	
8			N	
9			D	

Gulira'no HAMIDULLAYEVA, Andijon viloyati, Buloqbos.i tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi

«BARKAMOL AVLOD» - YURT KELAJAGI

– Ayni ta’til kunlarida Markazimizda o’quvchilarning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish, ularni qiziqishlari bo’yicha kasbga yo’naltirish yuzasidan ko’plab xayri ishlar amalga oshirildi, – deydi **Surxondaryo viloyati, Boysun tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Tangriqul BO’RIYEV.**

– O’quvchilarning birgina o’tgan yilning o’zida bir qancha respublika tanlovlarida faxrli o’rinlarni egallashdi. «Yosh sayyoh»lar «Chimyon sadosi – 2014» tanlovida 3-o’rin, «Notiqlik va jurnalistika» to’garagi a’zolari esa «Badiiy nafosat bilimdoni» respublika ko’rik-tanlovida «Eng faol ishtirokchi» nominatsiyasini qo’lga kiritishdi. Shuningdek, «O’simlikshunoslik» to’garagi rahbari Zebo Abdurahmonova «Yilning eng yaxshi to’garak rahbari» respublika tanlovida «Faol ishtirokchi» faxriy yorlig’i bilan taqdirlandi.

Yaqinda tuman ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari ishtirokida «She’riar tahlili» mavzusida «Notiqlik va jurnalistika» to’garagi a’zolari ijod namunalariga oid ochiq dars tashkilotirildi. Shartga binoan mashg’ulotni kutilmagan pedagog olib borishi belgilandi. Dars jarayonida o’quvchilar o’zlari yozgan she’riy mashqlarini o’qib berishdi. To’garak a’zolarining ijodiy ishlari o’qituvchilar tomonidan yuqori baholandi. Noan’anaviy tarzda tashkil etilgan ochiq dars yig’ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Quyida to’garak a’zolarining ijod namunalaridan sizga ham ilindik.

BOYSUN BU



Ot choptirgan ne-ne alplar bag’rida,
Azim tog’lar quchib turgan Boysun bu!
Barchinoyi tark etolmay qirlarin,
Yetti yillab yorin kutgan Boysun bu!

Mehmonlarga bag’rin ochgan mehmondo’st,
Qancha yovlar kelib-ketgan Boysun bu!
«Chorchinori» tepasida tik turib,
Ming tarixga guvoh bo’lgan Boysun bu!

Do’mbirasin qo’lga olib baxshisi,
Moziylardan doston aytgan Boysun bu!
Qadriyat-u rusum, urf-odatin,
Asrlardan olib o’tgan Boysun bu!

Marvarid RAVSHANOVA,
57-umumta’lim maktabining
7-sinf o’quvchisi

ATIRGUL

Buncha shirin hidlari,
Dimog’imga yoqar xush.
Meni mahliyo qildi,
Bu o’ngimmi yoki tush?!

Gulzorimdan mo’ralab,
Yuz ko’rsatdi atirgul.
Tunlarni tongga ulab,
Nola qiladi bulbul.

Hamida MAMASHARIPOVA,
36-umumta’lim maktabining
5-sinf o’quvchisi

USTOZ

Maktabga ilk kelganda,
Mehr ila boqdingiz.
Qalbimda ilm-u fanga,
Muhabbat uyg’otdingiz.

Sizdan qarzim ko’p hali,
Aziz ustoz, muallim.
Mehribonsiz, ulug’siz,
Aylayman sizga ta’zim.

Marjona MUSULMONOVA,
57-umumta’lim maktabining
5-sinf o’quvchisi

Iste’dodli bolalar shoiri va tarjimon Abdurahmon Akbarning «Mehribon quyosh» nomli yangi kitobiga uning qirq yillik ijod namunalaridan saralab olingan she’rlari jamlangan. Yaqinda bosmadan chiqqan mazkur kitobni varaqlar ekansiz, bolalikning qaytmas damlariga, beg’ubor olamiga sayohat qilganday bo’lasiz.

TOSHOYNANING

BIR SIRI

BOR



SHIRIN «QUYOSH»

Chorlar mitti chumoli,
Teng-to’shin sayohatga:
– Qani ketdik, jo’ralar,
Sayohatga – rohatga!

Cho’milmaymiz bugun biz,
Nilufar ungan ko’lda.
Adashib ham yurmaymiz,
Qumlari qaynoq cho’lda.

Ishoninglar, do’stlarim,
Ishoninglar so’zimga.
Boshlab boraman sizni,
Quyoshjonning o’ziga!

O’rtoqlarin chumoli,
Shunday deb yo’lga solar.
Mo’ljal qilib manzilga,
Kungaboqarni olar.

...Quvnar chumolilarning,
Pistadan yeganlari.
– Buncha shirin bo’lmasa,
Bu – Quyosh deganlari.

TOSHOYNA

Toshoyning bir siri bor,
Ko’plar buni bilmaydi.
Bilganlar, xo’sh, ne bo’pti, deb
Nazariga ilmaydi.

Toshoyning bir siri bor –
Qarshisida tursang san,
O’ng qulog’ing o’ng quloqmas,
Chapligini ko’rasan.

Chap ko’zingni qissang, o’ngi
Qisiladi ko’zguda.
Ishonmasang, bir sinab ko’r
Shu bugunning o’zida.

YOZ TUNI

O’ynab-o’ynab gulbog’da,
Lolaxon horib-toldi.
Ovqatni ham yemasdan,
Birpasda uxlab qoldi.

Aytgan gapi shu bo’ldi,
Tongda ochgach ko’zini:
– Uyquga to’y madim hech,
Buncha qisqa yoz tuni?!

Qay oqshom Lolaxonning,
Qizarib ketdi ko’zi.
Na oyisin uxlatdi,
Va na uxlatdi o’zi.

Mijja qoqmay «voy-voy»lab,
Yuraklarni qildi xun:
– Tezroq otaqol, ey tong,
Yoz tuni... buncha uzun?!

MASHMASHA

Yana o’sha mashmasha:
Mushukni quvlar kuchuk.
Har galgidek yetolmay,
Irillay boshlar xunuk.

Mushukvoy bu safar ham,
Yo’l tutar maymunga xos –
Oro kirar joniga
Hovlida o’sgan gilos.

Shovqindan zada qo’ylar,
Kuchukka otishar gap:
– Chiqolmasang daraxtga,
Nima qilasan quvlar...

JONIVORLAR DO’S TI



Bu voqeani buvijonimdan eshitganman. Keling, bu haqda sizlarga ham so’zlab beray. O’sha vaqtlarda buvim men tengi qizcha bo’lib, sho’xliklari bilan qo’shni qizlardan ajralib turar ekan. Ko’chadan o’tganlarida buvimdan qo’rqan mushuklar darrov daraxtga tirmashib, ko’zdan g’oyib bo’lar, yomg’irdan hosil bo’lgan ko’lmaklarda salqinlamoqchi bo’lgan musichalar ham potirlab uchib ketishar ekan. Chunki ular sho’x qizchanning shumliklaridan bezor bo’lgandilar.

Kunlarning birida peshin mahali ayvonda uxlab yotgan qizaloq allaqanday shitirlagan tovushdan cho’chib uyg’onibdi. Qarasa, bir qadam narida bir quloch



keladigan ilon kulcha bo’lib yotar, qizchanning dod-voyiga parvo ham qilmasmish. Uning baqirganini eshitgan qo’shni Qobil amaki voqea joyiga yetib kelibdi. Qo’lidagi ayri shox bilan qancha urinsa ham ilonni joyidan qo’zg’ata

olmabdi. Shunda qizaloq amakiga qarab, «Tosh bilan urib, boshini majaqlasangiz ham bo’lardi», debdi. Bu gapdan so’ng ilon boshini ko’tarib, u tomonga qarab xezlanibdi. Jonivorning o’tkir nigohlari shumtaka qizning ko’zlari bilan to’qnashibdi. Vajohatli qarashdan cho’chib ketgan qizcha noo’rin gapirib qo’yganimni tushunibdi. Ilon esa ohista sudralganicha tomorqaga qarab ko’zdan g’oyib bo’lgan ekan...

Bu voqeadan keyin qizcha butkul o’zgaribdi. Jonzotlarga ozor bermas, hovli chetiga qushlar uchun don sepihini kanda qilmaydigan bo’libdi. Hatto qo’shnimizning yangi bolalagan mushugi ham qorni to’y may qolgan chog’ida buvimning saxovatidan bahramand bo’lar ekan. Vaqtlar o’tib, mahalladoshlari buvimni «Jonivorlarning do’s ti», deb chaqiradigan bo’lishibdi.

Shahnoza MUSABOYEVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi
214-umumta’lim maktabining
9-«V» sinf o’quvchisi



Zarkent qishlog'i Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi tog'lar qo'ynida joylashgan. Sportning kurash turi qishloq yoshlari orasida ommalashib ketgani, chempionlar kashf etilayotganiga ancha bo'lgan.

TOG'LIK POLVONLAR

47-umumta'lim maktabi sport zalida mashg'ulotlarga kirishgan polvonlarning aksariyati viloyat Oliy sport mahorati maktabi tarbiyalanuvchilari hamda 31-BO'SM a'zolari sanalishadi. Kurash bo'yicha sport ustaligiga nomzod, respublika toifasidagi hakam Komiljon Bo'tayev boshchiligidagi 100 nafarga yaqin yosh sportchilarning kurash sirlarini o'rganayotgani quvonarli.



Muxlisa Abdumalikova, Umida Mirhamidova, Nargiza Abdulatipova, Nafisa Vohidova, Mehribonu Nuriddinova, Gulbadan Abdusattorova, Muxlisa Qambarova, Elmira Isoqova, Maftuna Jo'raboyeva kabi 25 nafar qizlarning deyarli barchasi mamlakat miqyosidagi bellashuvlarda g'olib va sovrindorlar bo'lishgan. Hatto Muxlisa Abdumalikova 2012-yili kurash bo'yicha London shahrida o'tgan jahon chempionatida 52 kg. vaznda ikkinchi o'rin, o'tgan yilning noyabr oyida dzyudo bo'yicha Chirchiq shahrida o'tgan Osiyo chempionatida Mahliyo Yo'ldosheva esa birinchi o'rinni egallagan. Shuningdek, Fayzulla To'laboyev, Husanboy Isomiddinov, Ulug'bek Egamberdiyev singari polvonlarning ham yutuqlari bisyor.

– Ustozimiz, dzyudo bo'yicha sport ustasi

Nuriddin Normatov 1993-yilda qishloqda to'garak tashkil etib, mashg'ulotlarni boshlab yuborgan edi, – deydi murabbiy Komiljon Bo'tayev. – U paytlari qizlarning kurash turlarida ishtiroki kuzatilmadi. Oradan yillar o'tib, qizlarni ham bu sport turlariga qiziqishi kuchaydi. Shu qishloqda yashab, shu zalda kurash sirlarini o'rganib, mamlakat chempionligiga erishgan Feruza Hamidjonova, Arofat Azizovalarga havas qilgan qizlar soni ortib bordi. Bugunga kelib, qishlog'imizdan adashmasam 100 nafarga yaqin respublika chempionlari bor. Niyatimiz, jahon sport maydonlarida, Olimpiada o'yinlarida ishtirok etish, ishtirok etganda ham muvaffaqiyat qozonib, yurt bayrog'ini baland ko'tarishdir.

Shoh MUHAMMAD

IFTIXOR TUYG'USI

Bolajonlar, har kuni ommaviy axborot vositalari orqali xalqaro sport musobaqalarida O'zbekiston sharafini himoya qilgan chempion tengdoshlaringizni ko'rib, havasingiz ortishi tabiiy.

TDIU qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Mirasil Mirahmedov, mana olti yildirki, taekvando ITF yo'nalishi bo'yicha MDH davlatlarida bo'lgan qator musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

– Dastlab, Qirg'izistonning Issiqko'l, Bishkek shaharlarida bo'ldim. Barselona, Sochida o'tkazilgan xalqaro musobaqalarda qatnashib, ancha tajriba to'pladim. Har safar musobaqa oldidan mamlakatimiz nomi e'lon qilinganida, qalbimni g'urur va iftixor hislari chulg'ab oladi. Bellashuvga kirisharkanman, ortimda ota-onam, murabbiylarim, do'stlarimning menga bildirgan ishonchlari, ona yurtimning issiq taftini sezgandek bo'laman. Shu his, mana shu taft, mas'uliyat, ishonch meni olg'a intilishga, bor mahoratim va imkoniyatimni ishga solishga undaydi, – deydi yosh sportchi.

Murabbiy Baxtiyor aka Isroilov mehnati samarasini shogirdi misolida ko'rganida, ustozlik baxtidan faxrlanib qo'yadi. Barchamizni faxr, iftixor hissi hech qachon tark etmasin!

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Yunusobod tumanidagi
96-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Keling, ertak o'qiymiz!

O'RAMONDA TO'P O'YINI

«Go'shxo'rlar-u «O'txo'rlar. Tuzdi futbol komanda. Biri o'ngdan to'p surdi, Boshqasi chap tomondan.

Bunday zo'r uchrashuvga, Yig'ildi barcha hayvon. Turmadan tortib hatto, Qirda yugurgan Jayron.

Maydon to'la muxlisga, Tinim bilmas olqishlar. Joy topolmay tepada, Uchib yurar Oqqushlar.

O'yinni olib borar, Baland shoxda Olmaxon. O'rtada O'rdak hakam, Yordamchisi – Ko'rsichqon.

O'txo'rlarning sardori, Jirafa cho'zib bo'yin. Maydonchada ko'rsatar, O'ta shiddatkor o'yin.



Undan qolishmas Arslon, Yirtqichlarning eng zo'ri. Darvozani daxlsiz, Qo'riqlab turar Bo'ri.

Quyvon to'pni Tulkidan, Bir mahal tortib oldi. Tulki hiyla ishlatib, Uni to'xtatib qoldi.

Boshlandi shunda qiy-chuv, Ko'tarildi vahima. Yirtqichlarga nisbatan, Belgilandi jarima.

Bug'u hushyor Bo'ning, Nozik joyin poyladi. Bir tepishda koptokni, Darvozaga joyladi.

Buni ko'rib yirtqichlar, Tishlarini qayrashdi. Aybdor sanab Tulkini, Maydonchadan haydashdi.

Xullas, shu kun go'shxo'rlar, «Bir-u nolga yutqazdi. G'alabani qo'shqo'llab, Raqiblarga tutqazdi.

G'oliblar yutuqlarin, Nishonlashni boshladi. Jahli chiqqan Arslonvoy, Mashg'ulotni boshladi.

Azamat XUDOYBERGANOV

PARVOZ ET, QALDIRG' OCH!



Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi «Samo qaldirg'ochlari» nomli 299-MTM bugun har kungidan-da bayramona bezatilgan.

Chunki bu yerda «Binafsha» – maktabga tayyorlov guruhining «Xayr, bog'chajon!» mavzusidagi tadbiri allaqachon boshlab yuborildi. Biri-biridan quvnoq bolajonlarning ajoyib chiqishlari salkam ikki soat davom etdi. She'rlar qo'shiqlarga, raqslarga ulandi. Abdulboriy, Mirodil-u Odilbek, Amirxon-u Shoilhom, Muslimalar-u Muxlisa, Mashhura-yu Madina, Mohigul, Rustam va Behruz, Sabrina, Robiya, Roziya... Eh-he, bu bolalar ingliz tilida shunaqangi ko'p she'r va qo'shiqlar bilishar ekan, barchaning havasi keldi. Ota-onalarning to'garak rahbari Sitora opadan minnatdorligi ularning olqishlarida aks etdi. Kichkintoylar sevimli ustozlari bog'cha mudirasi Farida opa Abdullayeva, tarbiyachilari Lola Yo'ldosheva, Fotima Salimova, musiqa rahbari Faridaxon Abdullayeva, bosh oshpaz Muhabbat hamda hamshira Lyudmila opaning mehribonliklariga javoban to'lib-toshganча she'riy-tashakkurnoma hadya etishdi.



YASHASIN, SHOKOLAD XO'RLARI!

Dunyoda shirinlikni yaxshi ko'rmaydigan bola bo'lmasa kerak. Og'izda erib ketadigan qora yoki oq shokolad haqida-ku gapirmasa ham bo'laveradi. Ba'zan kattalar esa shokoladning zararli tomonlari ko'p, deb kamroq iste'mol qilishni tavsiya etadilar. Ammo...

Yaqinda AQSH kimyo hamjamiyatining yig'ilishlaridan birida oddiy shokoladning mazaliroq va juda foydali bo'lgan yangi turi namoyish etildi. Olim va tadqiqotchilar bunga kakao dukkaklarini yangicha qovurish usuli orqali erishdilar. Tadqiqotchilar shokolad tarkibidagi inson salomatligi uchun zarur foydali ozuqalar borligini yana bir bor ta'kidladilar. Ushbu shokolad bir nechta bosqichda ishlab chiqariladi. Avvalo, daraxtdan kakao po'choqlari olinib, uning orasidagi dukkaklari ajratiladi. So'ng hosil savatlarga solinib, bir necha kun davomida quyoshda quritiladi. Ana shundagina dukkaklar yetilib, tayyor holga kelgan hisoblanadi.

Internet materiallari asosida ALISHER tayyorladi



NURBEK



SHE'RIY TOPISHMOQ

Adabiyotda «lug'z», Ataladi ushbu so'z. She'riy janrga kirar. Topqirlar darrov bilar. Olti harfdir biroq, Topaqol, qani, o'rtoq!



«Surma», «o'sma», «bosma», «soz» «Bog'», «yuz», «olma» hamda «yoz» Shakli bir xil yozilar, Turli ma'noda kelar. Tuyuq janrida bisyor, Ayting, javob kimda bor?

Nodira NAZAROVA

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Aziz bolajonlar! Siz ushbu anogrammada ajratilgan katakchalarga shunday bo'g'in qo'yingki, keyingi bo'g'in bilan o'qilganda ikkita so'z hosil bo'lsin.

G	U	L	x	a	n	J	A	R
K	U	R	t	a	k	L	I	F
D	A	F	t	a	r	V	U	Z
M	A	K	t	a	b	R	I	K
S	A	R	g	a	r	R	A	K
F	O	N	t	a	n	D	I	R
T	I	R				L	O	Q
B	U	R	ch	a	k	M	O	N
H	O	R	d	i	g	Q	A	T

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

MAZALI QOVOQCHALAR



Qo'li shirin kichik bekalar, ta'til kunlarida sizga tez tayyorlanadigan ajoyib tushlikni o'rgatmoqchimiz. Bu taom oila a'zolarinigizga manzur bo'lishiga ishonamiz.



Kerakli masalliqalar: 1 dona qovoqcha (kabachok), 1 dona tuxum, 1 oshqoshiq sut, 3-4 qoshiq smetana, yarim stakan un, ko'katlar, ta'bga ko'ra tuz, murch.

Ish avvalida qovoqchani dumaloq shaklda kesamiz. Tuxum bilan sut aralashiriladi va qovoqchalar birma-bir avval aralashmaga, so'ngra unga botiriladi. Qizdirilgan yog'da ikkala tarafi qizartirilgan qovoqchalar ustiga tuz, murch sepiladi va ustidan smetana quyiladi. Gaz pechida 10-15 daqiqa yetiltiliradi. Pishgan qovoqchalar likopchalarga solinib, dasturxoniga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Tahrir Hay'ati:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAIONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nurbek
NURALI o'g'li
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilmiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 46002
Buyurtma - S 3104

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.